

BUXORO AMIRLIGI QO‘SHINIDAGI O‘TOCHAR QUOLLAR (MILTIQ VA TO‘PPONCHA) TAVSIFI

Yunus Shukurillaev

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Maqolada Buxoro amirligi qo‘shinida foydalanilgan o‘tochar qurollar (miltiq va to‘pponcha), ularning chet davlatlardan keltirilishi hamda ishlab chiqarilishi tarixi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Miltiq, to‘pponcha, sarboz, miltiqsoz, “Pibodi-Martini”, “Berdana”, “Smitta” va “Vessona”, “Dragun”, 11 zaryadli ingliz miltiqlari, “Nagan”, “MAUZER”, “Parabellium”

ОПИСАНИЕ ОГНЕСТРЕЛЬНОГО ОРУЖИЯ (ВИНТОВКИ И ПИСТОЛЕТЫ) В АРМИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется история стрелкового оружия (винтовок и пистолетов), использовавшегося в армии Бухарского эмирата, его завоза и производства.

Ключевые слова: Винтовка, пистолет, сарбазы, стрелок, Пибоди-Мартини, Бердана, Смитта и Вессона, Драгун, английские одиннадцати-зарядные, “Наган”, “MAUZER”, “Парабеллиум”.

DESCRIPTION OF FIREARMS (RIFLES AND PISTOLS) IN THE ARMY OF BUKHARA EMIRATE

ABSTRACT

The article analyzes the history of small arms (rifles and pistols) used in the army of the Bukhara Emirate, their import and production.

Keywords: Rifle, pistol, sarbazy, shooter, Peabody-Martini, Berdan, Smith and Wesson, Dragoon, English eleven-rounders, “Nagan”, “MAUZER”, “Parabellium”.

Amirlikda o‘tochar qurollar uzoq davrlar mobaynida shakllanib ular qatoriga miltiq, to‘pponcha va to‘plarni kiritishimiz mumkin. Amirlikda chaqmoq miltiq, pilt

miltiqlar bo‘lib, mang‘itlar sulolasi davrida ular ancha eskirgan edi. Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Afg‘oniston orqali ingliz miltiqlari (bu hol ayniqsa, 1917-1920 yillarda ancha kuchaydi) Eron, Turkiya, Rossiya miltiqlarining kirib kelishi jarayoni avj oldi.

Amir Haydar hukmronligi davrida rus elchilari safida Buxoroga kelgan Ye. Meyendorf amirlik harbiy kuchlari xususida fikr yuritib shunday yozadi: “Sipohiyalar pilta miltiq, juda uzun nayza va eroniylarniki kabi yoysimon qilichlar bilan qurollangan. Ulardan ayrimlari kalta jibalar kiyishadi, temir va ho‘kiz terisidan qilingan dubulg‘a taqishadi. Artilleriya esa 20 ta eron zambaragidan iborat bo‘lib, uchta yoki to‘rttasi temir qoziqlari bo‘lmagan lofetlar bilan jihozlangan, xolos. Lofetlar, uchta g‘ildirakka o‘rnatilgan bo‘lsada, shunga qaramay, ular katta qiyinchilik bilan harakatga keltiriladi”¹

Rossiya imperiyasi vassalligi davrida amir qo‘shinida turli xildagi miltiqlarni ko‘rish mumkin edi. Seshanbegi sarbozlarida oddiy pilta miltiqlar, shanbegi sarbozlarida esa amir Muzaffarxon hukmronligining oxirgi yillarida Rossiya armiyasining 1862 yil namunasidagi “Berdana-3” miltiqlari bilan qurollangan edi. Bundan tashqari bir guruh sarbozlar dumbalapurlar deyilib, ular qo‘lida “dumbalapur” (ya‘ni o‘k miltiqning orqa tomonida joylashadi) miltiqlari bilan qurollangan edi.

Biz o‘rganayotgan davrda kazarmalar deyarli mavjud bo‘lmay sarbozlar amirlik tomonidan berilgan miltiqlar bilan xizmatdan tashqari vaqtlarida uylariga ketishlari mumkin edi. XIX asrning ikkinchi yarmida miltiqlar eskirganligi tufayli hatto, harbiy mashqlar davomida ham ishdan chiqar, oddiy hollarda sinib ketar edi. Buzilgan va singan miltiqlarni ta‘mirlash sarbozlarning o‘z hisoblaridan amalga oshirilgan².

Miltiqlar shu qadar eskirgan ediki, hatto xar bir yuzlikda 2-3 nafar miltiqsoz sarboz ertayu kech miltiq tuzatish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Arxiv ma‘lumotlari bu haqda ko‘plab ma‘lumolar uchraydi.

- Abdulloqahhorbek to‘qsaboning arzi: Har qaysi yuzlikdagi sarbozlarda 2-3 nafardan miltiq ustalar bo‘lib bu rizojo‘y qulingiz qo‘shinida 1 nafar miltiqsoz bor. Singan va buzilgan miltiqlarni ta‘mirlash uchun bir nafar usta kamlik qilmokda, 1893-1894-yil³.

- Qo‘shiningiz qullari ichida bir miltiqsoz bor edi. U xizmat yuzasidan Shahrizabz viloyatiga yuborildi. Bu vaqt ichida qo‘shiningiz qullari ustasiz qoldi. Qulingiz davlatxona ustolaridan birini berishingizni umid qilib sizni duo qiladi. 1893-1894 yil⁴.

¹ Мейендроп Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. -С. 140.

² Айний С. Дохунда. Т., 1956. 191-192 б.

³ ЎзР. МА. И-126- жамғарма. 1- рўйхат. 1637-иш, 3- варақ.

⁴ ЎзР. МА. И-126- жамғарма. 1- рўйхат. 1637-иш, 2- варақ.

Amir Abdulahadxon davriga kelib sarbozlarning qurol-yarog‘lari bilan uylariga ketishlariga ruxsat berilmaydigan bo‘ldi.

Qochoq sarbozlar ko‘paygan bu davrda agar sarbozlar o‘z miltiqlari bilan qochsalar ular bilan birgalikda harbiy amaldorlar ham qattiq jazolanishgan. Bunday holatlarda sarbozlar o‘nboshiga, o‘nboshi yuzboshiga, u sarkardaga, sarkada to‘pboshiga, to‘pboshi esa qo‘shbegiga zudlik bilan xabar bergan. Tez orada Qo‘shbegi mirzaxonasida bu mazmunda yozilgan qator xatlar otliq shogirdpeshalar tomonidan Buxoro muzofotidagi butun qozilar, beklar va yo‘llardagi qorovulxonalarga yetkazilgan¹.

Vafot etgan sarbozlarning qurol- yarog‘lari va hatto harbiy kiyimlarigacha olinib, to‘pboshchiga topshirilgan;

- Mirobod miroxur qo‘shinida vafot etgan odamlarning qurol -aslahalari bor. Quyidagi aslahalarni Akrambiy inoq to‘pboshiga topshirdik: Miltiqlar ruyxati; yuzboshi Muhammad Sharif qorovulbegi - 50 ta, yuzboshi Muhammad qorovulbegi - 44 ta, Habibuloh qorovul yuzligi - 39 ta... Jami 186 ta miltiq.²

Tarixdan ma‘lumki, Rossiya imperiyasi bosqini arafasida O‘rta Osiyolik savdogarlar uchun Rossiyadan metall xom ashyosini olib chiqish ta‘qiqlangan. Buxoro amirligi harbiy ishlari uchun metall juda ham muhim edi. Ana shu bois Buxoro va umuman xonliklardagi savdogarlar Rossiyadan xom ashyo emas, balki metall buyumlar, ko‘proq qozon va yirik metall buyumlari olib kelib sotishi hukumat tomonidan rag‘batlantirilgan. Ko‘pgina hollarda kontrabanda yo‘li bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri qurol-yarog‘larni olib kelishga harakatlar ham kuchayganini ko‘ramiz³. Bu xol ayniqsa, XX asr boshlarida ancha kuchayib amirlikka qurol-yarog‘ olib kelish ishlari hukmron doiralar tomonidan rag‘batlantirilgan.

Rus harbiy amaldorlarining Kogondagi Rossiya imperatorining siyosiy agentligiga yozgan maxfiy xati shunday mazmun kasb etadi:

-Razvedka ma‘lumotlariga ko‘ra amirlikning Karki bekligida Termiz va Marv orqali turkmanlar katta hajmdagi ingliz qurol- yarog‘lari bilan savdo qilishmoqda.

Afg‘onistondan olib kelinayotgan kalibri 4.3 sm.li Pibodi-Martini sistemali ingliz miltiqlari turkmanlar tomonidan 50-75 rubldan sotib olinib, Karkida 75-100 rubldan sotilmoqda.Ma‘lum bo‘lishicha, Mozori-Sharif va Maymanadan olib kelinayotgan bu miltiqlar savdosini rag‘batlantirish xususida Habibulloxonning maxfiy buyrug‘i bor 1906 yil 11 fevral⁴.

¹ Ўша асар.- 193 б.

² Ўз Р. МА. И-126-жамғарма. 1-рўйхат, 1634-иш.1-варақ.

³ 1868, 1873 йилги Россия-Бухоро шартномасига кўра Бухорога четдан қурол – яроғлар киритиш таъқиқланган.

⁴ Ўз Р. МА, 3-жамғарма.1-рўйхат.272-иш. 1-варақ.

Rus hukumatining qaror va bildirgilarida bunday hollarga qat'iy choralar ko'rish to'g'risidagi yuzlab xat va xabarlar mavjud. Shunday bo'lishiga qaramasdan bunday holatlarni bartaraf etishga rus ma'murlarning qurbi yetmagan:

- Olingan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahridagi Labihovuz Mirdo'stim, Qozonxona, Qori To'xta guzarlarida kontrabanda yo'li bilan olib kelingan katta hajmli miltiq va revolverlar saqlanmoqda. 1911- yil 4-noyabr¹.

Arxiv manbalarida amir savdogarining Rossiyadan ko'plab miqdordagi qurol-aslahalarni kontrabanda yo'li bilan olib kelganligi, ularning ayrimlari rus hukumati ma'murlari tomonidan qo'lga olinganligi xususida ko'plab ma'lumotlarga duch kelamiz. Bundan tashqari shunday ma'lumotlar borki, unda Rossiya fuqarolari ham boylik evaziga Buxoro amirligi hududida qurol – yarog' savdosi bilan shug'ullanishgan. Masalan: Rossiya siyosiy agentligi ma'murlaridan I. Reshetov 1911 yil 6-fevralda amirlikka yozgan xatida rus fuqarolaridan Kojuxovskiy, Abarji Vakulov, Vetoxinlar amirlik hududida maxfiy ravishda qurol-yarog' savdosi bilan ish olib borayotganliklari sabab ularni ushlashda yordam berishni so'ragan.²

Amirlik hududiga qurol- yarog' keltirilishi va uning ishlab chiqarilishi ayniqsa, 1917-yildan so'ng ancha jonlangan. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu voqealarning guvohi bo'lgan Muhammad Sayid Boljuvoni xabar beradi: «Nizomiy askarlaridan bo'lmish arab jamoasidan 50 nafari Ashxobod cho'liga borib Anglis davlatidan anglizcha pulemyot va miltiqlar olib keldilar. To'raqulboy po'st (Qorako'l) qo'y terisi ortilgan tuya bilan Angliyaga yuborildi. Buxoro va Angliya o'rtasidagi do'stlik o'rnatilishi haqida e'lon qildilar.

Rossiya urushlarida asir tushgan bir guruh askarlarga oylik tayin lanib, Imom (Abu) Hafsi Kabir Buxoriy darvozasi oldida, qal'a ichida to'p va o'q ishlab chiqaradigan fabrikani ishga soldilar. Kofirobodda ham doru, to'p va miltiq sozlab yasashni yo'lga qo'yib, harbiy va davlat ishlarini rivojlantirdilar. Natijada, Buxoro askariyasida to'plarining soni 600 taga yetdi, yana qanchadan qancha ovropacha to'plar ishlab tayyorladilar. Do'stlik o'rnatish uchun Domullo Qutbiddin Sudurni To'raxo'ja Naqib bilan Afg'onistonga yubordilar. Afg'oniston amiri vuzorolari bilan o'zaro bir necha qarorlar qabul qilib, Buxoro davlatiga yordam tariqasida oltita fil va 200 nafar fidoiy askarini yubordi»³.

1917 yildan ma'lum ma'noda mustaqillikka erishgan Buxoro amirligida sovetlar tomonidan qilinadigan tajovvuzlarga qarshi bir qancha chora va tadbirlar qo'llandi.

¹ Ўз Р. МА, 3-жамғарма.2-рўйхат. 171-иш. 187-варақ.

² Ўз Р. МА, 3-жамғарма.2-рўйхат. 171-иш. 10-варақ.

³ Мухаммад Сайид Болжувоний. Тарихи нофеий.- 58 б.

Aynan shu davrdan boshlab “Smitta” va “Vessona” markali ingliz revolverlari amirlikka ko‘plab kiritila boshlandi.¹

Zamonaviy qurol-yarog‘lar ishlab chiqarish zavodlariga ega bo‘lmagan Buxoro amiri 1917 yildan chetdan qurol-yarog‘ olib kirganlarni turli xil qimmatbaho sovg‘alar, otlar, xalatlari, unvon va mansablar bilan mukofotlashni kuchaytirgan. Bu esa Buxoro amirligiga qurol-yarog‘ni kirib kelish suratini yanada tezlashtirdi. Bu orada yevropacha tipda tashkil etilgan harbiy nizomiy guruhlar 3 qatorli rus va 11 zaryadli ingliz miltiqlari bilan qurollantirildi. Agentlik ma‘lumotlariga ko‘ra Buxoro qo‘shinida 45 dan 50 gacha pulemyotlar bo‘lib ulardan 12 tasigina ishchi holatida edi. Bundan tashqari 8000 dona qo‘l granatalari, 500 dona to‘p (ulardan 12 tasi zamonaviy) mavjud edi. Eski Buxoroda kuniga sifatli charmdan 500 juft oyoq kiyimlari tayyorlash korxonasi faoliyat yuritgan. Ta‘kidlash joizki, Buxoro shahrida kuniga 12 ming dona patron ishlab chiqarish imkoniyatiga ega korxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, unda I Jahon urushida asir olingan germaniyalik hamda avstriyalik harbiylar xizmatidan foydalanilgan².

Buxoro amirligida kontrabanda yo‘li bilan qurol-yarog‘lar kiritilishidan tashqari Rossiya imperiyasi hukmron doiralari ham cheklangan miqdorda amirlikka qurol-yarog‘lar berishga majbur bo‘lishgan.

Rossiya imperiyasining amirlikka qurol-yarog‘lar bilan “yordam” ko‘rsatishining sabablarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu o‘rinda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

- Buxoro amirligida bo‘lib turadigan ichki nizolar, beklarning amirga bo‘ysunmaslik holatlari, (1868-1871) yillardagi Abdumalik To‘ra, Shahrisabz va Kitob bekliliklaridagi harakatlar, xalq qo‘zg‘olonlari (1870-74 yillar Boljuvonda, 1871 yil Qarshi va G‘uzorda, 1885 yil Ko‘lobda, 1885-86 yillar Sherobodda, 1886 yil Hisorda, Dehnavda, 1899 y Kalifda, 1910 yilgi Buxoro shahridagi voqealar...) uzoq vaqtgacha cho‘zilishi Rossiya imperiyasi manfaatlariga ham to‘g‘ri kelmas edi

- Amirlikning chegaradagi tog‘li hududlarini qo‘riqlash, ayniqsa Hisor, Karki va Marv yakinlarida bo‘ladigan turli xildagi tajovvuzlarni bartaraf etish;

-Rossiya imperiyasi ko‘plab boyliklarni olib turadigan amirlikda uning siyosiy mustahkamligini va Rossiya tobe‘ligini oshirish maqsadida amir qo‘shinida tashkil etilgan yangi tipdagi nizomiy guruhlarni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlab turgan. Bundan tashqari, Rossiya imperatorlarining general ad‘yutantlari hisoblangan amir Abdulahadxon va Olimxonlarning o‘ziga sodiqligi maqsadini ham ko‘zlagan edi.

¹ ЎзР. МА. 3-жамғарма. 2-рўйхат. 976-иш. 36 варақ.

² Рюганов. Вооруженные силы Бухарского ханства. (секретно) Ташкент. Походная типография Путурка 1920, С-6

Shunday bo'lsada, amirlikka yuborilgan qurol-yarog'lar ma'lum me'yorda ushlab turilgan va ular rus armiyasining zamonaviy qurol-yarog'lari deyish aslo mumkin emas. 1887 yil 25 yanvarda Buxoro amirligiga "do'stlik" namunasi sifatida 1000 dona "Berdana-8" (1864 yil namunasidagi) miltiqlar o'q dorilari yuborilgan¹.

1904 yil 12 aprelda 1883 yil namunasidagi 2,5 dm kalibrli 2 ta, 1 ta lofet to'plari, 2 yashik o'q-dori², 1902 yil 17 noyabrda 1891 yil namunasidagi 60 dona o'q chiziqli "Dragun" miltiqlari³ 1903 yil 10 dekabrda 2 ta tog' sharoitida ishlatiladigan to'p va yuzta "Berdana-8" miltiqlari⁴ 1887 yil 25 fevralda 300 miltiq, 300 nayza, 300 ta o'qdon, 3600 dona o'q, 300 ta yog'don, 3000 ta sumba, 300 ta suzanak keltirilgan⁵.

Bunday yordamlar amirlikka Rossiya tomonidan 1914 yilga qadar berib turilganligi ma'lum. O'z navbatida 1914-1916 yilning oxiriga qadar Buxoro amirligining birinchi jahon urushi munosabati bilan Rossiya imperiyasiga ko'rsatgan katta hajmdagi yordamlarini kuzatishimiz mumkin. Bu xususida Baljuvoniylar shunday yozadi: Shunday zamon keldiki, Nikolay podsho Germaniya podshosi bilan nizo qildi. Bu nizo - kelishmovchiliklar og'ir va qattiq urushlarga aylandi. Hatto o'rus Nikolay Buxoro podshosidan yordam so'radi. Rossiyaga o'nta to'pi jahongir, 500 ta 5otar miltiq yuborildi. Shuningdek, fuqarodan 1500 ta yaxshi ot madad tariqasida yuborildi⁶.

Buxoro amirligida qurollanish va qurol-yarog'lar masalasida zamonaviylashish uchun ayrim ijobiy siljishlar ro'y bergan bo'lsada, biroq amirlik nafaqat Rossiya va Yevropa mamlakatlaridan balki, qo'shni bo'lgan yarim mustamlaka sharoitida yashayotgan Afg'oniston va Eron davlatlaridan ham ancha orqada qolgan edi. O'tochar qurollar bilan qo'shinni to'la tartibda qurollantirish vazifasi hal qilinmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ryuganov. Voorujennye sily Buxarskogo xanstva. (sekretno) Tashkent. Poxodnaya tipografiya Puturka 1920. S - 16.
2. O'zbekiston Milliy arxivi I-126 fond - Buxoro amiri qo'shbegisi devonxonasi
3. Muhammad Sayyid Baljuvoniylar. Tarix-i nofei. Dushanbe, 1994; Muhammad Sayyid Baljuvoniylar. Tarix-i nofei. Tojik tilidan tarjima, so'z boshi va izohlar mualliflari Shodmon Vohidov, Zoir Choriev. T.: Akademiya, 2001.
4. Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug'ati. To'ldirilgan ikkinchi nashri./ Mas'ul muharrir Sh. Vohidov. Toshkent: Akademiya, 2002. -183 b.
5. Meyendorf Ye. K. Puteshestvie iz Orenburga v Buxaru. -M.; Nauka, 1875.-S.180.

¹ ЎзР. МА. 3-жамғарма. 2-рўйхат. 15-иш. 5-варақ.

² ЎзР. МА. 2-жамғарма. 1-рўйхат. 181-иш. 15 варақ.

³ ЎзР. МА. 2-жамғарма. 1-рўйхат. 111-иш. 4 варақ.

⁴ ЎзР. МА. 2-жамғарма. 1-рўйхат. 181-иш. 1 варақ.

⁵ ЎзР. МА. 3-жамғарма. 12-рўйхат. 15-иш. 29 варақ.

⁶ Муҳаммад Саййид Болжувоний. Қўрсатилган асари.- 42 б.

6. Ayniy S. Doxunda. T., 1956. -368 b.
7. Shukurillaev, Yu. (2022, December). SOZDANIE VOENNYKH USTAVNYKH GRUPP YeVROPEYSKOGO TIPA V BUXARSKOM EMIRATE. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 4, pp. 42-51).
8. [Buxoro amirligida qo'shin va harbiy ish \(1756-1920 yillar\). Tarix fanlari nomzodi ilmiy drajasini olish uchun yezilgan dissertatsiya](#)
9. [SOZDANIE VOENNYKH USTAVNYKH GRUPP YeVROPEYSKOGO TIPA V BUXARSKOM EMIRATE](#)
10. The Army of Bukhara Emirate and Military Affairs (1756-1920). Synopsis of candidate dissertation in history.-Tashkent, 2006.-26 pp.; On the Issue of Diplomatic Relations ...
11. VOENNYE REFORMY V BUXARSKOM EMIRATE POD PROTEKTORATOM. Yu. Shukurillaev
12. BUXORO AMIRLIGIDA QO'SHIN TARKIBIGA QABUL QILISH QOIDALARI, ASKARLARNING QO'SHIN TARKIBIDAN QO'CHISHI (DEZERTIRSVO), SABABI VA OQIBATLARI. Yu.A Shukurillaev
13. Sherbchas and Afghan Groups in the Emirate of Bukhara. Y Shukurillayev
14. Azimov, A. A., & Avliyokulov, U. M. (2019). СОЦИАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЭПОХИ АБУ АБДУЛЛАХ РУДАКИ. Theoretical & Applied Science, (5), 560-562.
15. Темиров, Ш. Т., & Азимов, А. А. (2016). Экономический и культурный рост народов центральной азии в IX-X веках. In Интеграция современных научных исследований в развитие общества (pp. 104-105).
16. Азимов, А. А., & Темиров, Ш. Т. (2016). Политическая и социальная жизнь в бухарском эмирате во взглядах ахмада дониша. In Интеграция современных научных исследований в развитие общества (pp. 66-67).
17. Azimov, A. A. (2022). PHILOSOPHICAL AND ETHICAL IDEAS OF THE EARLY RENAISSANCE OF THE EAST IN CENTRAL ASIA AND THEIR REFLECTION IN THE VIEWS OF ZAKARIA AR RAZI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 1(7), 57-62.
18. Азимов, А. А., & Темиров, Ш. Т. (2016). КУЛЬТУРНАЯ И АРХИТЕКТУРНАЯ ВЗАИМОВЛИЯНИЯ ВОСТОКА И ВОСТОЧНОЙ ЕВРОПЫ С БУХАРОЙ. In Современные тенденции развития науки и производства (pp. 33-34).
19. Азимов, А. А. ўғли Рўзиев, АШ (2022, December). ОСОБЕННОСТИ КНИГИ АВЕСТА. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS (Vol. 1, No. 7, pp. 37-42).

20. ВЗГЛЯДЫ РУДАКИ О ВОСПИТАНИИ ЧЕЛОВЕКА АА Азимов - Innovative Development in Educational Activities, 2023 515-523
21. SCIENCE, LITERATURE AND POETRY IN TRANSOXIANA AND KHORASAN IX-X CENTURIES.
22. АА Abdullayevich - MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE, 2023 247-260
23. Мирзакулов, Б. Т. (2015). Дипломатические и торговые связи Бухары с Россией XVI–XVIII вв. Молодой учёный, 20, 548.
24. Мирзакулов, Б. Т. (1994). Рабочая кооперация Узбекистана в 20-е-начале 30-х гг.
25. Atoyev, J. H., & Salohov, A. Q. (2022). KONSTITUTSIYADA OILA HUQUQI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 637-640.
26. Salokhov, A. Q. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING THE IDEAS OF BUKHARA NOVELTY IN FORMING TOLERANCE IN YOUNG PEOPLE. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 171-178.
27. Салохов, А. К. К АНАЛИЗУ ИДЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО ДЖАДИДИЗМА В КОНТЕКСТЕ ЕЕ СОВРЕМЕННОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ШАКЛЛАНИШИНИ МОНИТОРИНГ, 464.
28. Салохов, А. Қ. БУХОРО МАЪРИФАТПАРВАРЧИЛИГИНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ.
29. Murodov, S. A. (2022). Relationship between the universe and man in the works of Fariduddin Attor. In International conference: problems and scientific solutions (Vol. 1, No. 6, pp. 35-41).
30. Мурадов, С. А. Современные методы философии и их значение в развитии мышления человека. Актуальные исследования, 51.
31. Мурадов, С. А. (2009). Ибн Сино, Аттор ва Навоий асарларида кушлар тимсоли. Имом ал-Бухорий сабоқлари», Маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. Тошкент, 273-276.
32. Мурадов, С. А. кизи Касимова, ФФ (2022, December). ФИЛОСОФИЯ ДИЗАЙНА: ОСОБЕННОСТИ И СУЩНОСТЬ. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS (Vol. 1, No. 7, pp. 51-59).
33. Санжар, М. (2020). Взгляды Фаридуддина Аттара на бытие. Международный журнал прикладных исследований. ИДЖАР, 6(6), 34-36.

34. МУРАДОВ, С. А. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФАРИДУДДИНА АТТОРА. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО "Издательство Молодой ученый, 51, 529-531.
35. Aslonovich, M. S., & Zaynura, M. (2023, June). NATIONAL DRESSES OF CENTRAL ASIA: AS A COMPONENT OF" CULTURE OF DESIGN". In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 15, pp. 170-177).
36. Aslonovich, M. S., & Zaynura, M. (2023, June). NATIONAL DRESSES OF CENTRAL ASIA: AS A COMPONENT OF" CULTURE OF DESIGN". In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 15, pp. 170-177).
37. Мурадов, С. А. (2023, June). ФАРИДУДДИН АТТОР-ВЕЛИКИЙ ШЕЙХ ВОСТОКА. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 15, pp. 149-160).
38. Muradov, S. A. (2023). THE MAIN IDEAS OF THE FOUNDER OF THE GERMAN SCHOOL OF PHILOSOPHY. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 588-594.
39. Sanjar, M. One of the Factors of Purity of the Heart is Futuwat. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 98-101.
40. Sanjar, M. (2020). The views of Fariduddin Attar on being. International journal of applied research. IJAR, 6(6), 34-36.
41. Nurmatova N. U. THE WORK “MAQOMOTI YUSUF HAMADONIY” BY ABDULKHOLIK GHIJDUVONIY—A SAMPLE OF RESPECT TO THE MASTER” //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2019. – Т. 4. – №. 2. – С. 210-218.
42. Нурматова Н. У. ЮСУФ ҲАМАДОНИЙ ТОМОНИДАН ХОЖАГОН ТАЪЛИМОТИГА КИРИТИЛГАН БИРИНЧИ РАШҲА //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 565-576.
43. UMAROVNA, N. N. Four basis analysis of human perfection in the work of Yusuf Khamadani, Odbi tariqat. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(4), 1-3.
44. Nurmatova N. U. Logical analysis of Abdulkhaliq Gijduvani’s work “Maqomoti Yusuf Hamadoni”/ISSN (Online): 2455-3662 EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal //Volume. – Т. 7. – С. 417-420.
45. Djuraev A. et al. Cotton increase the efficiency of cleaning as a result of improving the unit for cleaning small and large wastes //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.

46. Нурматова, Нигора, and Нодиржон Сафоев. "ШКОЛА СУФИЗМА ЮСУФА ХАМАДОНИ В БУХАРЕ." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 15. 2023.
47. Нурматова Н. У. ЮСУФ ҲАМАДОНИЙ ТОМОНИДАН ХОЖАГОН ТАЪЛИМОТИГА КИРИТИЛГАН БИРИНЧИ РАШҲА //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 565-576.
48. Nurmatova, N. U. Logical analysis of Abdulkhaliq Gijduvani’s work “Maqomoti Yusuf Hamadoni”/ISSN (Online): 2455-3662 EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal. Volume, 7, 417-420.
49. Nurmatova N. U. THE WORK “MAQOMOTI YUSUF HAMADONIY” BY ABDULKHOLIK GHIJDUVONIY–A SAMPLE OF RESPECT TO THE MASTER” //Central Asian Problems of
50. Modern Science and Education. – 2019. – Т. 4. – №. 2. – С. 210-218.
51. Нурматова Н. У. Юсуф Ҳамадоний ва хожагон-нақшбандия таълимотининг “назар бар кадам” рашҳаси //Zamonaviy oliy ta’lim: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya. Navoiy. – 2022. – С. 30-31.
52. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. *Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal.*–India, 10(4), 360-364.
53. Shodiev, J. J. (2020). Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. *International engineering journal for research & development.*-India, 5(3), 143-148.
54. Шодиев, Ж. Ж. Interpretation of the image of may in the ruba of Umar Khayyam. *Monografia pokonferencyjna science, research, development*, 33, 2020-30.
55. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём фалсафий қарашларида инсон тақдири ва эркин ирода масаласи. *Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси*, 2, 197-204.
56. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг асосий асарлари ва рубойларининг тузилиши, мазмуни ва таҳлили. *Илм Сарчашмалари.*-Урганч, 10, 44-47.
57. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём рубойларининг талқин ва тавсифи. *Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси*, 9, 206-210.
58. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. *Фалсафа ва ҳуқуқ.*–Тошкент, 3, 107-110.
59. Shodiev, J. (2021). The problem of knowledge in the philosophical views of Umar Khayyam. *Imam al-Bukhari IBS Journal*, 2.
60. Шодиев, Ж. (2022). Илк уйғониш даврида–комил инсонни шакллантириш ватарбиялашда тасаввуф таълимотининг ўрни. *Scientific Bulletin of NamSU- Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi*–2022-yil_4-сон, 229.

61. Шодиев, Ж. Ж. Мамлакатимизда инсон қадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Қарду хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).
62. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(9), 206-211.
63. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
64. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.
65. Shodiyev, J. (2021). JAMIYATDAGI MEHNAT MUNOSABATLARI SHAROITIDA MA'NAVIY SALOHİYAT. Журнал истории и общества, (2)
66. SHODIEV, J. (2021). SOCIO-POLITICAL LIFE AND THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE PERIOD OF UMAR KHAYYAM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
67. Shodiyev, J. (2021). O'ZBEKISTONDA IJTIMOİY-SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATI. Academic research in educational sciences, 2(2), 409-416.
68. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(2), 197-202.
69. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.
70. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
71. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
72. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.
73. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 616-625.

74. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.
75. Шодиев, Ж. Ж. (2023, June). ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УКРЕПЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).
76. JJ Shodiev. [A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY](#). GOLDEN BRAIN 1 (24), 59-67.
77. Музафаровна, А.М. (2022). СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННАЯ РЕФОРМА И ВОЗНИКАЮЩИЕ КОНФЛИКТЫ. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy , 10 (5), 623-626.
78. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2015). Интернационализация профессионального образования как требование времени. Молодой ученый, (2), 506-509.
79. Алимова, М. М. (2022, December). УПРАВЛЕНИЕ ВНУТРЕННЕЙ МОТИВАЦИЕЙ РАБОТНИКОВ НА БЕЗОПАСНЫЙ ТРУД И ВЫПОЛНЕНИЕ ТРЕБОВАНИЙ ОХРАНЫ ТРУДА. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 7, pp. 43-50).
80. Muzafarovna, A. M., & Tangrievich, M. B. (2021). FORCED COLLECTIVIZATION OF AGRICULTURE IN ZARAFSHAN OASIS (1928-1932). Thematics Journal of Education, 6(November).
81. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2016). Перспективы использования технологии сотрудничества в процессе подготовки педагога профессионального образования. Молодой ученый, (12), 839-841.
82. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2016). Психологические основы педагогического проектирования. Молодой ученый, (12), 837-839.
83. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2015). Социально-психологические факторы формирования модели педагога в современном образовательном процессе. Молодой ученый, (2), 504-506.
84. Алимова, М. М. (2023). «РАСКРЕПОЩЕНИЕ» ЖЕНЩИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (1920-1930 г. г). Innovative Development in Educational Activities, 2(8), 535-541.
- 85.** Алимова, М. М., & Гариев, А. (2023). ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ КОРРУПЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 261-270.

86. Бафоев Ф. М. Историческая память в мировой политике. Роль ООН и других международных организаций //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2017. – №. 1-4. – С. 180-182.
87. Бафоев Ф. М. ПРИНЦИП НЕДЕЛИМОСТИ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 1-1. – С. 51-54.
88. БАФОЕВ Ф. М. О ВЗАИМОСВЯЗИ ГЛОБАЛЬНОЙ, РЕГИОНАЛЬНОЙ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ //АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований". – №. 21. – С. 53-55.
89. БАФОЕВ Ф. М. К ВОПРОСУ КОРРЕКТИРОВКИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПОНЯТИЯ «МИРОВАЯ ПОЛИТИКА» В КОНТЕКСТЕ СИНЕРГЕТИКИ //АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. – С. 31.
90. БАФОЕВ Ф. М. К вопросу о динамике современных международных отношений //АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований", (20). – 2022. – С. 35-37.
91. Каримов, Б. (2011). Гармонизация взаимоотношений государства, общества и человека как основа справедливого общества. постановка вопроса. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество, 8(1), 71-73.
92. Каримов, БК (2021). Гармония разума и духа. Американский журнал социальных наук и инноваций в образовании , 3 (05), 230–234.
93. Каримов, Б. (2023). ПРОЦЕССЫ МОДЕРНИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ДОКУМЕНТАХ ГЕНЕРАЛЬНОЙ АССАМБЛЕИ ООН (2017-2019). MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 291-301.
94. Каримов, Б.К. (2023). СУЩНОСТЬ СОЗНАНИЯ И ЕГО ГЕНЕЗ. Инновационное развитие в образовательной деятельности , 2 (7), 532-539.
95. Aminovna, V. G. (2021). The role of social system and political ideas in achieving human prosperity. Thematics Journal of Education, 6(November).
96. Бердиева, Г. А. (2023). ПРАВОВАЯ И РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В ПЕРИОД ПЕРВОГО РЕНЕССАНСА ВОСТОКА. МОДЕЛИ И МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ , 2 (24), 271-279.
97. Бердиева, Г. А. (2023). ПРИОРИТЕТЫ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 524-531.

98. Бердиева, Г. А. (2023). ЁШЛАРНИ БАҒРИКЕНГЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ИЖТИМОЙ ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 232-240.
99. Аминовна, Б. Г. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ВНУТРЕННИХ И МЕЖДУНАРОДНЫХ ПУТЕЙ СВЯЗИ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ КОРОЛЕВСТВ В РАЗВИТИИ ТОРГОВЛИ. *Web of Scientist: Международный научный исследовательский журнал*, 3, 10-12.
100. Шукриллаев, Ю. А. (2006). Бухоро амирлигида қўшин ва ғарбий иш (1756-1920 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий дражасини олиш учун езилган диссертация.
101. Шукуруллаев, Ю. (2022, December). СОЗДАНИЕ ВОЕННЫХ УСТАВНЫХ ГРУПП ЕВРОПЕЙСКОГО ТИПА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 42-51).
102. Шукруллаев, Ю. А. Армия Бухарского эмирата и военное дело (1756-1920 гг.). Автореферат кандидатской диссертации по истории.-Ташкент, 2006.-26 с.; К вопросу о дипломатических сношениях между Россией и Бухарой через Оренбург в конце XVIII-начале XIX веков. *Общественные науки в Узбекистане*.-1962, 7, 55-59.
103. Shukrullayev, Y. A. The Army of Bukhara Emirate and Military Affairs (1756-1920). Synopsis of candidate dissertation in history.-Tashkent, 2006.-26 pp.; On the Issue of Diplomatic Relations between Russia and Bukhara through Orenburg at the End of the XVIII-th-the Beginning of the XIX-th Centuries. *Social Sciences in Uzbekistan*.-1962, 7, 55-59.
104. Shukrullayev, Y. A., & Bahritdinovna, S. R. (2023). GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI TIKLASH HARAKATI.“IQTISODIY MO ‘JIZA”. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 577-587.
105. Shukrullayev, Y. A. (2022). FRANSIYA–O ‘ZBEKISTON ALOQALARINING TARIXIY ILDIZLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 110-113.
106. Шукуруллаев, Ю. (2023). ВОЕННЫЕ РЕФОРМЫ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ПОД ПРОТЕКТОРАТОМ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(16), 249-260.
- 107.** Шукуруллаев, Ю. А. (2023). БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚЎШИН ТАРКИБИГА ҚАБУЛ ҚИЛИШ ҚОЙДАЛАРИ, АСКАРЛАРНИНГ ҚЎШИН ТАРКИБИДАН ҚОЧИШИ (ДЕЗЕРТИРСВО), САБАБИ ВА ОҚИБАТЛАРИ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(8), 513-524.

108. Shukurillayev, Y. (2023). Sherbachas and Afghan Groups in the Emirate of Bukhara. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 2(1), 34-36.
109. Sultanova, L. (2021). The historical roots of spiritual education of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 461-463.
110. Mavlonova, I., Akhmetjanov, M., Vokhidova, M., Fayziev, S., & Shokirova, S. (2022, December). Experimental studies of the dynamics of the proposed design of the presser foot with an additional conical spring. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2373, No. 2, p. 022047). IOP Publishing.
111. Vohidova, M. (2023). SOCIAL AND ETHICAL ASPECTS OF THE EXISTENCE OF TOLERANCE IN YOUNG PEOPLE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 559-566.
112. Вахидова, М. Т., & Мирзаев, У. Т. (2022, December). ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 52-62).
113. Вахидова, М. Т. (2022). ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(7), 82-90.
114. Султонова, Л. С. (2023). ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯ ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИНГ УЗВИЙЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 633-639.
115. Sulstonova, L. (2023). Upbringing Mature Person. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(3), 71-73.
116. Султанова, Л. С. (2023). ТОЛЕРАНТНОСТЬ В ВОСПИТАНИИ ПОДРОСТОЯЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 557-564.
117. Султонова, Л. С. (2022). МЕСТО ИНЖЕНЕРНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(6), 29-34.